

Xalqaro Nordik Universiteti
Psixologiya va maktabgacha
ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi
Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna

Agar yoqtirmaslik, nafrat degan narsalarning elektrga aylanishi mumkin
bo'lganida, butun dunyoning yorug' bo'lishiga kifoya qilgan bo'lardi.

Nikola Tesla



Ushbu iboraga ko'zim tushganida, ko'nglimda g'alati og'riq paydo bo'ldi. Nima uchun endi nafrat! Bizda buni mehr va muhabbat bilan almashtirish imkonim turganida nima uchun yoqtirmaslik yoki nafratni tanlashimiz kerakligi meni qiynadi. Shunchaki oddiy afsus emas, bu o'zimga va insoniyatga achinish edi. Bu tuyg'u bolalarimda ham bo'lishi mumkin, nabiralarimda ham bo'lishi mumkin. Bu naqadar qo'rinchli. Bu naqadar vahimali. Bu naqadar ayanchli.

Men butun dunyoni yaxshi ko'raman, atrofimdagilarni yoqtirmaslik tuyg'usi bilan qabul qilmayman. Men barchani, hammani yaxshi ko'raman. Chunki men shunday sevgisi ko'p insonlardan paydo

bo'lganman. Chunki men sevgi bilan nafas oladiganlardan paydo bo'lganman. Chuni men sevgiman. Mening bolachalarim sevgi. O'glim yashil sevgi. Katta qizim pushti sevgi. Kichkinasi sariq sevgi. Sevgining rangli bo'lishini men bolalarimdan o'rgandim. Ota-onamdan sevgini o'rgandim, bolalarimdan uni ranglar bilan bezashni o'rgandim. Sevganim bilan esa shunchaki barchaga sevgi berishni o'rgandim. Chunki menga har doim sevgi berdi, hech sevgi talab qilmadi. Men eshitgan iboralar ichida eng go'zal iborani aytgan ham sevgilim, ya'ni:

Sevgi beriladi, bergen sari ko'payadi, xuddi ilmga o'xshaydi. Ikkisida
ham kuch qudrat bor, ikkisida ham boqiy yashash bor

Sevgilim B.

Sevgini tanlash, uni targ'ib qilish va boshqalarga tarqatish – bu bizning haqiqiy kuchimizdir. Har bir inson sevgi bilan tug'iladi va uni yetkazish qobiliyatiga ega. Agar barchamiz nafrat o'rniga sevgini tanlasak, butun dunyo yorug'roq, iliqroq va baxtliroq bo'lishiga aminman.

Sevgi bilan o'zim

Lutfullaeva, N., & Istamov, E. (2022). Organizational Structure for the Establishment of Health Oriented Behavior Among Employees of the Organization. International Journal of Social Science Research and Review, 5(8), 88-101.

Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI. Nordic_Press, 2(0002).

Razzoqova, M. (2024). METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Nordic_Press, 3(0003).

Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Nordic_Press, 2(0002).

Shodiboev, S. (2024). Qobiliyat va etika rahbar shaxsining kompetensiyasi sifatida. Tahlil va talqin. Nordic_Press, 2(0002).